

MAKTABGACHA TA'LIMDA O'YIN FAOLIYATI

Berdiyeva Gulzoda Saydulla qizi

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2- kurs talabasi

Annotatsiya. *O'yin — tarbiyalashqalar mashqlar, shuningdek, san'at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo'shib kelgan. Ma'lumki, inson o'z hayotida o'yin, o'qish, mehnat, dam olish kabi mashg'ulotlar bilan band bo'ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o'yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa u o'qish bilan baravar davom etadi, undan so'ng esa o'yin kamayib, uning o'rnini o'qish va mehnat egallaydi.*

Kalit so'zlar: *O'yin, bola, o'yin faoliyati, tarbiya, ta'lim, tarbiyachi roli, didaktik o'yin,*

Аннотация. *Игра — одно из средств воспитания и отдыха. На протяжении всей истории человечества игра была связана с религиозными обрядами, спортом, военными и другими упражнениями, а также с искусством, особенно с его исполнительными формами. Известно, что в жизни человека существуют занятия, такие как игра, учёба, труд и отдых. В раннем детстве игра является основной деятельностью человека, затем она продолжается наряду с учёбой, а позже уступает место учёбе и труду.*

Ключевые слова: *игра, ребёнок, игровая деятельность, воспитание, обучение, роль воспитателя, дидактическая игра.*

Annotation. *Play is one of the means of education and recreation. Throughout human history, play has been associated with religious rituals, sports, military exercises, and various forms of art, especially performing arts. It is known that in human life, activities such as play, study, work, and rest are interconnected. In the early stages of life, play is the main activity of a child; later, it continues alongside learning, and eventually, play decreases as study and work take its place.*

Keywords: *play, child, play activity, education, upbringing, teacher's role, didactic play.*

Kirish. O'yin bolalarni rivojlantirish va tarbiyalash vositasidir. Psixologlar o'yinni maktabgacha yosh davrida yetakchi faoliyat deb hisoblaydi. O'yin tufayli bolaning yuqori rivojlanish bosqichiga o'tishini ta'minlovchi sifatlar shakllanadi, ruhiyatida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi. O'yinda bola shaxsining hamma tomoni birbiriga o'zaro ta'sir etgan holda shakllanadi. O'ynayotgan bolani kuzatayotib uning qiziqishlarini, tevarak-atrof to'g'risidagi tasavvurini, kattalarga va o'rtoqlariga bo'lgan munosabatini bilib olish mumkin. Shaxsdagi biror sifatni tarbiyalash uchun uning boshqa tomonlarini ham rivojlantirish kerak. Masalan, bolaning o'yiniga qiziqishini, tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantirish uchun mazmun jihatidan boy o'yinlar yaratilishi kerak. Bolalarning ijodiy o'yinlarini rivojlantirish uchun esa o'z navbatida yaxshi tashkil etilgan bolalar jamoasi zarur bo'ladi. O'yin bolalarni jismoniy tomondan tarbiyalash sistemasida, MTMning ta'lim-tarbiya ishida, axloqiy, mehnat va estetik tomonlama tarbiyalashda katta o'rin tutadi. O'yinda bola organizmiga xos bo'lgan talab va ehtiyojlar qoniqtiriladi, hayotiy faollik ortadi, bardamlik, tetiklik, quvnoqlik tarbiyalanadi. Shuning uchun ham bolalarni jismoniy tarbiyalash sistemasida o'yin munosib o'rin egallaydi .

O'yin ta'lim va mashg'ulotlar bilan, kundalik hayotdagi kuzatishlar bilan uzviy bog'liq ho'lib juda katta ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega. Didaktik o'yinlarda bolalar o'zlari tabiatdagi narsa va hodisalar, hayvonlar va o'simliklar haqida mavjud bo'lgan bilimlarni , mustahkamlaydilar, kengaytiradilar. Ko'pgina o'yinlar bolalarni umumlashtirish hamda turkumlashga o'rgatadi. Didaktik o'yinlar xotira, diqqat, kuzatuvchanlikning o'sishiga yordam beradi, yangi sharoitlarda bolalami mavjud bilimlardan foydalanishga o'rgatadi, turli aqliy jarayonlarni faollashtiradi, lug'atni boyitadi, bolalarda birgalikda o'ynash ko'nikmasini tarbiyalashga yordam beradi.

Xulosa. Maktabgacha ta'lim jarayonida o'yin faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. O'yin orqali bola atrof-muhitni anglaydi, muloqot qilishni o'rganadi, tafakkuri, nutqi va ijtimoiy ko'nikmalari rivojlanadi.

Tarbiyachi o'yin jarayonini to'g'ri tashkil etish orqali bolalarda ijodkorlik, mustaqillik va jamoada ishlash qobiliyatini shakllantiradi. Shunday ekan, o'yin faoliyatini ta'lim-tarbiyaning asosiy vositalaridan biri sifatida samarali qo'llash maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama barkamol shaxs qilib tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTDAN:

1. Usmonxo'jaye v T., Xo'jaye F., 1001 o'yin, Toshkent, 1990.
2. "Maktabgacha ta'lim- tarbiyani tashkil etish " darslik 2022 Tosheyeva Nurzoda Toshtemirova
3. "Maktabgacha pedagogika" darslik 2019- yil Fotima Qodirova , Shoista Toshpo'latova, Nargiza Kayimova, Malohat A' zamova
4. "Bolalarni tabiat bilan tanishtirish"darslik 2023-yil Quchqorova Nargiza Mamajonovna, Avazmetova Intizor Rajapboyevna, Ikramova Dono Ulug'bek qizi.
5. "Tabiat bilan tanishtirish" o'quv qo'llanma 2020-yil G.E.Djanpeisova, M.A.Rasulxo'jaye
6. Abdullayev F. Pedagogikada didaktik o'yinlar: nazariya va amaliyot / F. Abdullayev. — Toshkent: Fan, 2012. — 220 b.
7. Davlatov A. Didaktik o'yinlarning ta'lim jarayonidagi o'rni / A. Davlatov. — Toshkent: O'qituvchi, 2018. — 180 b.
8. Yuldashev A. Ta'limda interaktiv metodlar: didaktik o'yinlar va ularning o'rni / A. Yuldashev. — Toshkent: Universitet, 2015. — 150 b.